



POLITICAL AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE CONCEPT OF “NATIONAL INTEREST” AND ITS MANIFESTATION IN FOREIGN POLICY

Asatillokhon Kodirxonov

Independent Researcher

a.kodirxonov@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: national interest, political realism, foreign policy, state interests, rational approach, H. Morgenthau, P. A. Sigankov, political mechanisms, state independence, international relations.

Received: 19.10.25

Accepted: 20.10.25

Published: 21.10.25

Abstract: This article analyzes the political and theoretical foundations of the concept of “national interest,” its formation process, and its manifestation in foreign policy. It is emphasized that the formation of national interests is a complex and multi-stage process that requires the cooperation of political institutions, state bodies, political parties, and civil society institutions. Drawing on the concepts of scholars such as H. Morgenthau, P. A. Sigankov, J. B. Durasel, V. Trukhachev, and V. Germayer, the article discusses the permanent (central) and variable (secondary) forms of national interests, their role in international relations, and their importance as a factor determining the priorities of state foreign policy. Within the framework of political realism, the dynamic nature of national interests and their interconnection with the internal political mechanisms of the state, as well as with ideological, economic, and cultural factors in society, are scientifically explained.

“MILLIY MANFAAT” TUSHUNCHASINING SIYOSIY–NAZARIY ASOSLARI VA TASHQI SIYOSATDA NAMOYON BO‘LISHI

Asatilloxon Kodirxonov

Mustaqil tadqiqotchi

a.kodirxonov@mail.ru

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: milliy manfaat, siyosiy realizm, tashqi siyosat, davlat manfaatlari, ratsional yondashuv, G.Morgentau, P.A.Sigankov, siyosiy mexanizmlar, davlat mustaqilligi, xalqaro munosabatlar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada “milliy manfaat” tushunchasining siyosiy-nazariy asoslari, ularning shakllanish jarayoni hamda tashqi siyosatda namoyon bo‘lishi tahlil etiladi. Milliy manfaatni shakllantirish murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, unda siyosiy institutlar, davlat organlari, siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi. G. Morgentau, P. A. Sigankov, J. B. Dyurazel, V. Truxachev va V. Germayer kabi olimlarning konsepsiyalariga tayangan holda, milliy manfaatlarining doimiy (markaziy) va o‘zgaruvchan (ikkinchi darajali) shakllari, ularning xalqaro munosabatlardagi o‘rni hamda davlatlarning tashqi siyosatidagi ustuvorlikni belgilovchi omil sifatidagi roli yoritiladi. Shuningdek, siyosiy realizm doirasida milliy manfaatlarining dinamik tabiati, ularning davlat ichki siyosiy mexanizmlari, shuningdek jamiyatdagi mafkuraviy, iqtisodiy va madaniy omillar bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy asosda izohlanadi.

ПОЛИТИКО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЯ “НАЦИОНАЛЬНЫЙ ИНТЕРЕС” И ЕГО ПРОЯВЛЕНИЕ В ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ

Асатиллахон Кодирхонов
Независимый исследователь
a.kodirxonov@mail.ru
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: национальный интерес, политический реализм, внешняя политика, государственные интересы, рациональный подход, Г. Моргентау, П. А. Сиганков, политические механизмы, государственная независимость, международные отношения.

Аннотация: В данной статье анализируются политико-теоретические основы понятия «национальный интерес», процесс его формирования, а также проявление во внешней политике. Отмечается, что формирование национальных интересов представляет собой сложный и многоэтапный процесс, в котором важную роль играет взаимодействие политических институтов, государственных органов, политических партий и институтов гражданского общества. Опираясь на концепции таких ученых, как Г. Моргентау, П. А. Сиганков, Ж. Б. Дюрпель, В. Трухачев и В. Гермайер, раскрываются постоянные (центральные) и изменчивые (второстепенные) формы

национальных интересов, их роль в международных отношениях, а также их значение как фактора, определяющего приоритеты внешней политики государств. В рамках политического реализма научно обосновывается динамическая природа национальных интересов, их взаимосвязь с внутренними политическими механизмами государства, а также с идеологическими, экономическими и культурными факторами в обществе.

Kirish. “Milliy manfaat” tushunchasining tuzilishi va uni amaliy hayotga tatbiq etish masalasi bugungi kunda siyosiy institutlar, siyosiy partiyalar hamda keng jamoatchilik diqqat markazida turibdi. Ushbu jarayon murakkab va ko‘p bosqichli bo‘lib, uning samarali amalga oshirilishi olimlar, siyosatchilar va turli darajadagi rahbarlarning hamkorlikdagi sa’y-harakatlarini talab etadi. Bunday mexanizm puxta rejalashtirilgan holda yo‘lga qo‘yilsa, yuqori natijalarga erishish mumkin.

Davlatimizda qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, avvalo, davlatchilikni mustahkamlash, davlat tuzilmalarini takomillashtirish, milliy manfaatlarni himoya qilish, mudofaa salohiyatini kuchaytirish va milliy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ular hokimiyat va boshqaruv tizimini mustahkamlovchi muhim normativ asos vazifasini bajaradi.

Mustaqillik esa faqat erkinlikni anglash emas, balki o‘z taqdirini mustaqil belgilash, hayotni milliy manfaatlardan kelib chiqib tashkil etish, kelajakni o‘z qo‘li bilan qurish huquqini bildiradi. Shu bois, agar xalqaro integratsiya mamlakat suvereniteti, mustaqilligi va hududiy yaxlitligiga xavf tug‘dirsa yoki uni mafkuraviy majburiyatlar bilan cheklasa, bunday tashqi integratsion tashabbuslar mamlakatimiz uchun nomaqbul hisoblanadi.

Xalqlar do‘stligi Rossiya universiteti professori V. V. Truxachev ta’kidlaganidek, milliy manfaat tizimlarining shakllanishida asosiy tashkiliy kuch – bu davlat siyosiy mexanizmlaridir. Siyosiy mexanizmlar murakkab tizim bo‘lib, ular xodimlar va institutlar, bilim va hissiyotlar, qaror qabul qilish jarayonlari, institutsional shakllar hamda kommunikatsiya vositalarini o‘z ichiga oladi.

James F. Miskel esa milliy manfaatlar tushunchasi tashqi siyosat sohasida nafaqat siyosatchilar, balki akademik doiralar tomonidan ham izchil tahlil qilinib, amaliyotda qo‘llanilayotganini ta’kidlaydi. Masalan, AQShning Bosniya va Kosovoga nisbatan olib borgan siyosati yuzasidan o‘tkazilgan muzokarlarda ushbu mintaqada AQSh milliy manfaatlarini qanday izohlash mumkinligi borasida turli fikrlar bildirildi. Ayrim tahlillarda bu siyosat fundamental

kelishmovchiliklar ifodasi sifatida baholangan bo'lsa, boshqalarda uni boshqa mintaqalardagi milliy manfaatlar bilan uzviy bog'liqligi jihatidan ustuvor deb ko'rilgan.

Shu kabi munozaralar milliy manfaat va tashqi siyosat o'rtasidagi bog'liqlikni izohlashga qaratilgan ikki asosiy yondashuv mavjudligini ko'rsatadi. Birinchi yondashuvga ko'ra, milliy manfaatlarni aniq va to'liq izohlash mumkin, biroq zamonaviy davrda global mustaqillik va raqobat sharoitida bunday izohni to'liq ta'minlash mushkul. Ikkinchi yondashuv esa siyosatchilar amalda milliy manfaatlarni imkon qadar aniq ifodalashga intilishini ta'kidlaydi. Tarixiy tajriba esa bu jarayon siyosiy raqobatda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Ikkinchi farz shunday ediki, siyosatchilar albatta aniqlik bilan milliy manfaatlarga izoh berishga harakat qilishadi, bu musobaqalashishni kafolatlaydi.

Milliy manfaatlar – bu, birinchi navbatda, o'ziga xos aloqalar va genetik va madaniy gomogenlikning o'zaro bog'liqliklari bilan birlashgan milliy birlik yoki guruhlar manfaati tarzidagi siyosiy qarash keng tarqalgan bo'lib, ehtimol, bunday yondashuv siyosiy tajribalarga baho berishda, ayrim muammolar manbasini aniqlashda, diniy va milliy – ozodlik (yoki ayirmachilik) harakatlarining asosiy mohiyatini tushuntirishda o'rinli bo'lardi.

Hozirgi kunda “milliy manfaat” tushunchasiga yondashuvlar turli xil bo'lmoqda. Siyosiy realizm nazariyasining asoschilaridan biri G.Morgentau nuqtai-nazari bo'yicha milliy manfaat ikki asosiy elementni o'z ichiga oladi: markaziy (doimiy) va ikkinchi darajali (o'zgaruvchan). Ikkinchi darajali element tub milliy manfaat makon va zamonda qabul qila oluvchi aniq shakl sifatida namoyon bo'ladi. Markaziy manfaat esa uch omildan tashkil topib, u himoyalaniishi lozim bo'lgan manfaat tabiatidan, manfaat harakatda bo'ladigan siyosiy muhitdan va uning maqsad va vositalarni chegaralovchi ratsional ehtiyojlardan iboratdir.

P.A.Sigankovning fikriga ko'ra “Milliy manfaat” davlat xizmatchilarining ratsional tushunish darajalariga ham to'la moslashadi. Ratsional qarash asosi o'zida xalqaro munosabat o'ziga hosliklarini tan olishni ko'zda tutadi, bu esa uni “milliy manfaat” asosida to'g'ri ishlatish shartligini inobatga olishni ham anglatgan.

Ratsional qarash siyosatda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan harakatlarning chegaralarini belgilaydi, ob'ektiv mavjud to'siqlarni ko'rsatadi va qanchalik jozibador bo'lmasin, reallikka zid bo'lgan xayoliy sxemalarning qo'llanishiga yo'l qo'ymaydi.

Bu to'siqlarni yo'qotishga qaratilgan har qanday harakat, amaliy natijalar haqida qayg'urish bo'ladimi ishonchli ko'ra bilish yoki siyosatdagi noaniqliklarni yengishga urinishlar bo'ladimi bari zavolga yuz tutadi. Chunki bu harakatlar xohish istakdan kelib chiqqan mavjud reallikdan emas. Shuningdek bunday urinishlar nafaqat utopik balki xavfli ham, chunki ko'p hollarda ular ideologik xohishiga asoslanadi.

Siyosiy realizmning asosiy tamoyillaridan biri milliy manfaatlarni dinamik tarzda o'zgarib borishi bilan aloqador. Morgentauning yozishicha, «Siyosiy realizm hoqimiyat uchun kurash deb tushuniladigan manfaat kontsepiyasi, o'zgaruvchan va ma'lum bir sharoitlarga asoslanadi». Ya'ni, manfaatlar tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy, siyosiy sharoitlarga bog'liq, chunki milliy manfaatlar va davlat o'rtasidagi aloqa vaqt o'tgani sari yo'qola borishi mumkin. Bu bilan siyosiy realizm milliy davlatlarga bo'lingan zamonaviy dunyoni kelajakda davlatlararo ittifoqlardan yoki boshqa tuzilmalardan tashkil topgan shaklga aylanishini inkor etmaydi.

Siyosiy realizm kontseptsiyasining tarafdorlari xalqaro munosabatlarda asosiy kuch sifatida milliy manfaatlarni e'tirof etadilar. Kuch–qudrat kategoriyasi esa Xalqaro munosabatlar va jahon siyosatini tartibga soluvchi mexanizm sifatida ta'riflanadi.

Tanqidchilar G.Morgentauning «faqat bitta qat'iy talab, fikrlashda faqat bitta mezon, harakatning yagona tamoyili: milliy manfaatlar borligi haqidagi fikriga shubha bilan qarashdi. Realizm opponentlari undagi eng asosiy narsa – milliy manfaat mazmunining obyektivligini inobatga olishdan bosh tortishdi. Skeptiklar hatto qat'iy siyosiy realizm tarafdorlari qatorida ham topildi. Misol uchun R.Aron fikricha davlat ichidagi turli individlar va guruxlarga tegishli bo'lgan maqsadlar, vositalar va resurslar ma'lum bir teng ta'sir etuvchi kuchni hosil qilmaydi va milliy manfaatlarni tahlil mezoni yoki siyosiy arbob uchun ideal sifatida baholashga imkon bermaydi. Davlatning tashqi siyosati, uning etakchisining maqsadlarini tanlashda ma'lum darajadagi erkinlikka ega bo'lgan hatti–harakatlarida aks etadi. Bunda etakchilarning mafkurasi, nafsoniyati, temperamenti va boshqa sifatlari katta ahamiyatga ega. Biroq davlat etakchilarining holatidagi shartli jihat shundaki, ular guyo o'zlarining barcha hatti–harakatlari asosida milliy manfaat yotganday taassurot qoldirishga intiladilar.

Xalqaro munosabatlar sohasi bo'yicha mashhur fransuz olimi J. B. Duroselle shunday deydi: «Albatta, agar ob'ektiv milliy manfaatni aniqlash imkoni bo'lganida yaxshi bo'lardi. Shunda xalqaro munosabatlarni tadqiq etishda etakchilar ilgari surayotgan milliy manfaatlarni ob'ektiv milliy manfaat bilan taqqoslash ancha oson bo'lardi».

Shu o'rinda yana bir olim Moskva Davlat Universiteti professori V.Germayer milliy manfaatlarga xotirjam va farovon hayotga eltuvchi bir vosita, yo'l sifatida qarab shunday degan: «har bir xalq, millat, elat, guruxlar har xil yo'llar bilan umumiy farovonlikkaga intiladilar. Bu umumiy farovonlik ularning milliy manfaatlaridir»

Eng oxirgi yillarda siyosatchilar Delfik nazariyasidan ko'ra milliy manfaatlarni yoritishga tayyor emas edilar.

Shunday qadimgi yunon fol kitobiga o'xshab, o'zining ikki tomonlamalik bashoratlari va ataylab maslahatni yashirmoqda, bugunning siyosatchilari rejadagidek keng miqyosda ta'rif

berishga taklif qilishmoqdak ular millatning uzoq masofaga mo'ljallangan bir yo'ldan ko'p bo'lgan maqsadlarini ochishni aniqlashga urinadi.

Umuman aytganda, milliy manfaatlarni qanday ifodalash uchun fikrning ikkita asosiy maktablari bor. Ulardan biri Otto Fon Bismark XIX asrda va Richard Nikson XX asrda milliy manfaatlar davlatning moddiy kuchi va boshqa xalqlarga bog'liq ta'sir etuvchi sharh deb tushunilishi kerak degan fikrda qoladi.

V.V.Mejuev siyosatda milliy manfaatning qulayligini quyidagilarda ko'radi: mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy elitalarining faoliyatini aniqlashda yordam beradi; mamlakatning madaniy an'analariga javob beradi; uning jahon tarixidagi siyosiy, diniy va boshqa shaklda tutgan o'rni haqida tasavvur uyg'otadi; davlatning harbiy strategik o'rning mustahkamlanishiga yordam beradi; uning ijtimoiy-iqtisodiy o'rni yaxshilashga intiladi.

Xulosa. "Milliy manfaat" tushunchasi har bir davlatning siyosiy mustaqilligi, xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy tamoyillardan biri sifatida alohida nazariy-amaliy ahamiyatga ega. Uni shakllantirish jarayoni murakkab, ko'p bosqichli bo'lib, davlat siyosiy institutlari, partiyalar, ilmiy doiralar, fuqarolik jamiyati va rahbarlik tuzilmalarining uzviy hamkorligini talab etadi. Mazkur jarayon samarali tashkil etilgandagina davlatning milliy manfaatlari xalqaro munosabatlarda izchil himoyalaniadi va ilgari suriladi.

Milliy manfaatlarning markaziy (doimiy) va o'zgaruvchan (ikkinchi darajali) tarkibiy qismlari mavjud bo'lib, ular mamlakatning siyosiy muhitiga, iqtisodiy salohiyatiga, madaniy qadriyatlariga va xalqaro vaziyatga bevosita bog'liq holda shakllanadi. G.Morgentau, P.A.Sigankov, J.B.Dyurazel, V.Truxachev, V.Germayer kabi olimlarning nazariy qarashlari tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy manfaatlar doimo dinamik xususiyatga ega bo'lib, ularni ifodalash va amalga oshirish mexanizmlari ham davr talabiga qarab o'zgaradi. Shu bilan birga, siyosiy realizm tarafdorlari milliy manfaatlarni xalqaro munosabatlar tizimida asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida e'tirof etgan bo'lsalar, tanqidchilar bu tushunchaning obyektivligi va aniq chegaralarini belgilash murakkabligini qayd etadilar.

Xulosa qilib aytganda, milliy manfaatlar davlat tashqi siyosatining maqsadlarini shakllantiruvchi, ichki siyosiy barqarorlikni mustahkamlovchi va xalqaro maydondagi o'rni belgilovchi strategik omildir. Ularni to'g'ri belgilash va izchil amalga oshirish nafaqat davlat manfaatlarini himoya qilish, balki jamiyatda siyosiy uyg'oqlik, iqtisodiy rivojlanish, madaniy o'zlikni anglash va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois milliy manfaatni shakllantiruvchi siyosiy mexanizmlarni chuqur o'rganish, ularni takomillashtirish va zamon talablariga moslashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

1. Aron R. Paix et guerre entre ies nation. P.,1984.
2. James F.Miskel. National Interests. Grand purposes and Catchphrases?/Naval War College,686 Cushing Road, Newport,RI,02841–1207//connection.ebscohost.com/c/articles/8561326/national–interests–grand–purposes–catchphrases – 14.01.2014.
3. Бэттлер А. Национальные интересы, национальная и международная безопасность // Независимая газета. 2003, №122.
4. Жўраев С., Аҳмедов О., Раҳимова М. / Ўзбекистон ва жаҳон ҳамжамияти: халқаро муносабатлар ва ташқи алоқаларни ташлил қилиш. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт–матбаа ижодий уйи, 2008.
5. Каримов И.А.Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида,Т. 6. – Т.: Ўзбекистон, 1997.
6. Трухачёв В. В.Национальные интересы: сущность, структура, политические механизмы формирования//cprsob.ru/load/16–1–0–41
7. Цыганков П.А. Теория международных отношений. – М.: Гардарики, 2004.